



A LOOK AT THE HISTORY OF THE FORMATION OF ANTHROPOLOGY AS A SCIENCE IN UZBEKISTAN

Amaliddin Nurboyevich Sulaymanov

Candidate of Historical Sciences

Associate Professor of the Department of History

Gulistan State University

Gulistan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Uzbekistan, Central Asia, anthropology, ethnography, expedition, Turkestan region, research, ancient and ancient population.

Received: 15.09.25

Accepted: 16.09.25

Published: 17.09.25

Abstract: The article will discuss the origins of anthropology in Uzbekistan, the history of its development, the research expeditions and studies conducted by our anthropologists and scientists over the past century, as well as the current challenges facing anthropology in Uzbekistan.

O'ZBEKISTONDA ANTROPOLOGIYA FANINING SHAKLLANISH TARIXIGA NAZAR

Amaliddin Nurboyevich Sulaymanov

Guliston davlat universiteti

"Tarix" kafedrası dotsenti., tarix fanlari nomzodi

Guliston, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Markaziy Osiyo, antropologiya, etnografiya, ekspeditsiya, Turkiston o'lkasi, tadqiqotlar, eng qadimgi va qadimgi aholi.

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda antropologiya fanining vujudga kelishi, uning shakllanish tarixi, bir asr davomida antropolog-olimlarimiz tomonidan amalga oshirib kelishayotgan ilmiy-tadqiqot ekspeditsiyalari, O'zbekistonda antropologiya fanining dolzarb vazifalari haqida so'z boradi.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПОЛИТИЧЕСКИХ АКТОРОВ В РАЗРЕЗЕ СИСТЕМ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Амалиддин Нурбоевич Сулейманов

Доцент кафедры истории Государственного университета Гулистан

кандидат исторических наук

Гулистан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Узбекистан, Центральная Азия, антропология, этнография, экспедиция, Туркестанский край, исследование, древнейшее и древнее население.

Аннотация: В статье будет идти речь о зарождении антропологии в Узбекистане, истории ее становления, научно-исследовательских экспедициях, проводимых нашими антропологами и учеными на протяжении столетия, а также о современных задачах антропологии в Узбекистане.

Kirish. Antropologiya – odamning kelib chiqishi va evolyutsiyasi, odamzod irqalarining paydo bo'lishi, odamning tana tuzilishidagi normal farq-tafovut, o'zgaruvchanlik haqidagi fan. Antropologiya ijtimoiy fanlarga juda yaqin turadigan biologiya sohasidir[1].

Antropologiya fan sifatida shakllanishi haqida so'z borar ekan, fan sifatida faqat XIX-asrning 2-yarmidan shakllana boshladi.

Ta'kidlash kerakki, har yili, fevral oyining uchinchi payshanbasida, Butunjahon antropologiya kuni nishonlanadi[2].

Ushbu bayram Amerika antropologiya assotsiatsiyasi (AAA) tomonidan tashkil etilgan bo'lib, 2015-yilda birinchi bor antropologiyaning milliy kuni sifatida tashkil qilingan. Keyingi yili bayramning nomi, Butunjahon antropologiya kuni deb o'zgartirilgan[3].

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Inson mohiyatini tushunishga urinishlar, ilmiy bilimlar paydo bo'lishi bilan sodir bo'la boshladi. Tarixning o'rta asrlarigacha insonning faqat ma'naviy tomoni o'rganilgan. Insonning jismoniy mohiyatini o'rganuvchi yo'nalish bo'lsa, Evropada o'rta asrlarda paydo bo'ldi. Antropologiya termini XVIII-XIX-asrlarda rivojlanib, mustahkamlanib bordi[4].

Antropologlar turli xil, qadimgi va bugungi jamiyatdagi ijtimoiy hayot shakllari va madaniy amaliyotlari, diniy e'tiqodlari va iqtisodiy tizimlaridagi o'xshashlik va farqlarni aniqlashga harakat qilishadi. "Antropologiya" atamasi asosan ingliz tilida so'zlashadigan mamlakatlarda XX-asrning 90-yillarida ilmiy muomalaga kiritilgan. Germaniyada u etnografiya, Frantsiyada esa etnologiya termini bilan foydalaniladi[5]. Hozirgi kunda ham "Antropologiya" atamasi tor va keng ma'noda talqin qilinadi. Tor ma'noda, antropologiya faqat insonni o'rganadi (tana va miya, anatomiya va fiziologiya o'rtasidagi munosabatlar). Keng ma'noda o'zining madaniy va ijtimoiy tomonlarini e'tiborga olgan holda, insonparvarlik haqidagi fan sifatida talqin etiladi. Antropologiya mehnat qurollari, texnika va texnologiyalar, an'ana va urf-odatlar, e'tiqod va qadriyatlar, ijtimoiy institutlar, oila, nikoh va qarindoshlik munosabatlari, iqtisodiy mexanizmlar, san'at evolyutsiyasi, obro'-e'tibor uchun kurash va hokazolarni o'rganadi. Yanada keng ma'noda aytganda, antropologiya ham gumanitar, ham ijtimoiy fanlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Antropologiya, paleoetnologiya, etnologiya, sotsiologiya, tilshunoslik, mifologiya, ijtimoiy geografiya, demografiya, tibbiy antropologiya, odam psixologiyasi, inson genetikasi, inson ekologiyasi kabi fanlar bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi[6].

Ijtimoiy fanlar orasida antropologiya alohida o'rniga ega bo'lib, insonning bir necha million yillar davomidagi shakllanish jarayonini kuzatib, o'rganadi.

Antropologiya bo'yicha yaxshi qo'llanmalar, albatta, har doim kerak. Ushbu adabiyotlar o'zbek tilida bor, lekin ular kamchilikni tashkil etadi. Bugungi kunda bu juda dolzarb vazifani tashkil etadi. Shuni ta'kidlash kerakki, biologik, arxeologik va tarixiy qo'llanmalardan tashqari turli xil yondashuvdagi chalkashliklarga ega bo'lgan qo'llanmalar mavjud. Ular odamlarning turli biologik xususiyatlari (morfologiya, anatomiya, DNK va boshqalar) to'g'risida emas, balki madaniy elementlar (asboblari, uy-ro'zg'or buyumlari) bo'yicha aniqlash maqsadida keng tarqalgan noo'rin yondashuvlarga ega bo'lganlarni tashkil etadi. Arxeologlar va tarixchilar uchun bunday qo'llanmalar kerak hamdir, ammo bunday sharoitda antropologiya faniga oid emas, balki, aytaylik, arxeologik etnografiyaga xos bo'lgan o'quv qo'llanma, adabiyot bo'lishi ehtimoldan uzoq emas.

Qadim zamonlardan to bugungi kungacha jamiyatda yangi fanlar vujudga kelmoqda. Ulardan ba'zilari vaqt o'tishi bilan o'zining dolzarbligini yo'qotayotgan bo'lsa, boshqalari esa rivojlanib bormoqda.

Antropologiya fanini o'rganish, bugungi jamiyatdagi shaxsning inson sifatidagi muammolarini tarixiy jihatdan tushunishni, shuningdek, inson tabiatining murakkabligi va ko'p qirraliligini, tabiatning qarama-qarshi tomonlarini tushunishni shakllantirishda yaqindan yordam beradi.

Antropologiya – Tabiatshunoslik fanining odam, irqning kelib chiqishi, jismoniy tuzilishi va evolyutsiyasini o'rganadigan soha hisoblanadi[7]. Odamning makon va vaqtdagi o'zgaruvchanligi, bu o'zgaruvchanlik qonuniyatlari va uni boshqaradigan omillar haqidagi fan antropologiya bo'ladi.

Antropologiyaning mavzulari juda xilma-xil. Shu munosabat bilan u zamonaviy tabiatshunoslikning umumiy tendentsiyasiga ega. Nisbatan qisqa vaqt ichida antropologiya fani muhim muvaffaqiyatga erishdi, yaqin o'tmishda hal qilib bo'lmaydigan ko'ringan ko'plab savollar, tadqiq etilib, yakuniy echimiga ega bo'ldi.

Tadqiqot metodologiyasi. Antropologiyada qo'llaniladigan metodlar yil sayin ortib bormoqda. Qoida tariqasida, ular odamlarning morfologik, funktsional, genetik va biokimyoviy xususiyatlarining o'zgaruvchanligini o'rganish uchun zarur bo'lgan boshqa biologik fanlardan - fiziologiya, biokimyoy, genetika kabilardan foydalangan holda vujudga kelmoqda.

Tahlil va natijalar. Insonning konstitutsiyaviy tipi, xarakteri, temperamentining shakllanishiga mos ravishda o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash kabi masalalarda, antropologik tadqiqotlar ko'lami asta-sekinlik bilan kengayib bormoqda. Buning natijasida, jinsi, yoshi, ijtimoiy mavqei, mintaqaviy va iqlim sharoitiga qarab ko'plab jismoniy va ruhiy xususiyatlarning irsiylanish mexanizmlarini yoritish mumkin bo'lmoqda.

Antropologiya fanining o'ziga xos ekanligi, tadqiqotlarning murakkabligida, chunki fan insonni o'rganish orqali, ijtimoiy-tarixiy qonuniyatlar mavjud bo'lgan sohalar sirasiga kiradi. Antropologiyani boshqa biologik fanlardan ajratib turadigan jihati, uning tarix fanlari – arxeologiya, etnografiya, tarix bilan bevosita bog'liqligi hisoblanadi.

Antropologlarning vazifasi odamlar populyatsiyasini o'rganish, ekstremal sharoitlarda yashovchi guruhlariga mansub biologik va fiziologik xususiyatlarni baholash, biologik sharoitlari o'xshash mintaqalarda yashovchi turli etnik, yosh, ijtimoiy guruhlarni tekshirish va solishtirishdan iborat.

Antropologiya - biologiya fanlari orasida alohida o'rin tutadigan soha. U inson va irqning jismoniy tuzilishining kelib chiqishi va evolyutsiyasini o'rganadi[8]. Insonning makon va vaqtdagi o'zgaruvchanligi, o'zgaruvchanlik qonuniyatlari va uni boshqaradigan omillarni o'rganuvchi fan. Shuni qayd etish kerakki, inson sifat jihatidan noyob mavjudot bo'lib, uning kundalik hayoti faqat jamiyatda va birgalikda amalga oshirilgan ishlab chiqarish sharoitida o'tishi mumkin bo'lganligi sababli, antropologiyani zoologiyaning xususiy tarmoqlari bilan bir qatarga qo'yib bo'lmazligi aniq. Odam antropologiyasi 200 dan ortiq fanlar tomonidan o'rganiladi[9]. Antropologiyani, fanlararo xususiyatga ega bo'lgan bir nechta fan sohalaridan biri deyish mumkin.

Antropologiya fanlararo xususiyatga ega ekanligini hisobga olib, u bilan bevosita bog'liq bo'lgan fanlarni ta'kidlab o'tish kerak. Bular:

Biologiya, tirik tabiat haqidagi fanlar tizimi hisoblanadi. Ushbu fan, tirik tizimning tuzilishi va faoliyatini o'rganadi.

Psixologiya – odam va hayvonlarning xulq-atvori, psixikasini o'rganadigan fan.

Ijtimoiy psixologiya bo'lsa - kichik guruhlardagi shaxslararo munosabatlarni o'rganuvchi soha hisoblanadi.

Sotsiologiya - ijtimoiy hodisalarni, odamlarning o'zaro ta'siri prizmasi orqali ko'rib chiqadi. Antropologiya fani nuqtai nazaridan u, jamiyatdagi insoniy munosabatlarni o'rganadi.

Etnografiya (yunon tilidan tarjimasi qabila, xalq) yoki etnologiya (etnik tarix) fani, dunyoda mavjud xalqlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

Madaniyatshunoslik – madaniyatning asosiy vazifalari, rivojlanish omillari, xalqlarning o‘zaro madaniy ta’sirlari, madaniy aloqalarning rivojlanishini o‘rganadi.

Shunday ekan, antropologiya odamni o‘rganuvchi boshqa fanlar tomonidan to‘plangan tajribani birlashtiradi.

Hozirgi kunda ko‘pgina xorijiy davlatlar (Angliya, Frantsiya, AQSh)da antropologiya, odam haqidagi umumiy fan sifatida keng qabul qilingan[10].

XVIII asr boshida, antropologiya atamasi endigina kundalik ilmiy ehtiyojga kirib kela boshlagan. XIX-asrning birinchi yarmida, antropologiya mustaqil fan hisoblanmay, ushbu atamaning aniq ta’rifi mavjud emas edi. Ushbu davrda, odam haqidagi barcha kompleks bilimlarni antropologiya bilan bog‘lashar edi. Antropologiyaning bugungi kun tasavvurida qabul qilinishi, XIX-asrning o‘rtalarida sodir bo‘lib, xozirda ham mavjud bo‘lgan, odam haqidagi fan – antropologiya vujudga keladi[11].

Turkiston o‘lkasi aholisini tarkibini antropologik jihatdan o‘rganish ishlari haqida so‘z borar ekan, shuni aytib o‘tish kerakki, 1869-yilda Zarafshon vodiysi aholisi, Turkiston o‘lkasining tojik, o‘zbek, fors, tatar va turk kabi aholisining antropologik tipi o‘rganilishi boshlanadi[12]. O‘zining tadqiqotlarini yakunida A.P.Fedchenko, Turkiston aholisining asosini ikki xalq, tojik va o‘zbeklar tashkil etishini, birinchilari tog‘ va tog‘ oldi hududlarida, ikkinchilari bo‘lsa daryo bo‘yi va dasht hududlarda istiqomat qilishlarini ta’kidlab o‘tadi. Tadqiqotchi A.P.Bogdanov ushbu ma’lumotlar bilan chegaralanib qolmay, Turkiston o‘lkasi aholisining antropologiyasi bo‘yicha shaxsiy tadqiqotlarini tashkil qiladi. Zarafshon daryosining yuqori qismi, Turkiston o‘lkasining boshqa hududlari aholisi antropologiyasi va etnik tarixi bo‘yicha tadqiqotchi tomonidan qator maqolalar chop etiladi. 1876-yilda A.P.Bogdanov va uning izdoshlari tomonidan, ma’lum muddat davomida Turkiston hududida amalga oshirilgan tadqiqot natijalari asosida antropologik materiallar ko‘rgazmasini tashkil etish bo‘yicha faoliyatlarini boshlab yuboradilar. 1879-yil 3-aprel kuni Moskva shahrida ushbu ko‘rgazma o‘z ishini boshlaydi va tez orada dunyoda mashhurlikka erishadi[13].

Antropologik materiallar ko‘rgazmasi natijalari, O‘rta Osiyo xalqlari antropologiyasi va etnik tarixiga oid bo‘lgan, o‘lkada keyingi tadqiqotlarni davom ettirishga ilmiy yo‘nalish bo‘lib xizmat qilgan 4 jildlik kitobni chop etilishiga xizmat qildi.

XX asrga kelib, antropologiyaning biologik bilimlar tizimidagi fan sifatidagi o‘rni tubdan o‘zgaradi. Antropologik fan negizida, boshqa bilim tarmoqlari, masalan nazariy tibbiyot, o‘smirlar fiziologiyasi va boshqalar shakllana boshlaydi. Sovet davrida antropologiyaning rivojlanishini bevosita D.N.Anuchin bilan bog‘lashadi. Ilmiy doiralardagi o‘zining obro‘sidan foydalangan holda u, ilmiy muassasalar tashkilotchisi sifatida universitet va ilmiy jamiyatlarda

faoliyatini davom ettiradi. Uning tashabbusi va mehnatlari asosida 1919-yilda, Moskva universiteti qoshida antropologiya kafedrasini tashkil etilib, o'z faoliyatini boshlaydi. Shundan buyon uzoq yillar davomida ushbu kafedra jismoniy antropologiya yo'nalishida mutaxassislar tayyorlab kelmoqda. 1922-yilda olimning tashabbusi bilan, Moskva universiteti qoshida, mustaqil muassasa sifatida Antropologiya ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etiladi. Institutning tashkil topganidan so'ng, moskvalik antropologlar, V.V.Bunak rahbarligida yangi yo'nalishlarda faoliyatlarini davom ettirishadi. Antropologik tadqiqotlar va antropologik metodlarni ishlab chiqish bazasi kengaya boradi. Tadqiqotlarning biometrik va geografik metodlari intensiv rivojlanib, V.V.Bunak rahbarligida, morfologik tahlillarning yanada takomillashgan usullari o'zining keyingi rivojlanishiga ega bo'la boshlaydi. Xuddi shu davrda boshqa yirik shaharlarda antropologik muassasalarning vujudga kelishi, aholining antropologik tarkibini tadqiq qilishga keng imkoniyatlarni ochib beradi. O'zbekistonda, yanada aniqroq aytganda Toshkent shahrida, L.V.Oshanin rahbarligida Antropologiya kafedrasining tashkil topishi xuddi shu davrga to'g'ri keladi.

Shunday ekan, bugungi kunda to'plangan va jahon tsivilizatsiyasining ajralmas qismi hisoblangan Markaziy Osiyo xalqlari antropologiyasi va etnik tarixiga oid keng materiallar tarix, arxeologiya, etnografiya, antropologiya, tilshunoslik, folklorshunoslik, onomastika, sharqshunoslik, tarixiy demografiya, geografiya va h.k. fanlaridan ma'lumotlarni taqdim etmoqda. Bu fanlar etnik va antropologik ma'lumotlar manbai sifatida baholanib, turli fanlarning sintezi ekanligi qayta-qayta muhokama qilinmoqda.

Biroq xalqlarning antropologiyasi va etnik tarixini o'rganish jarayonida ko'p hollarda monoetnik yondashuv hukm surmoqda. Etnik tarixni o'rganishda antropologiya muhim rol o'ynab, ushbu fan xalqlarning hayoti, ayniqsa, aholining etnik mansubligi, migratsiya yo'nalishi, vaqti, substrat va superstrat populyatsiyalar o'rtasidagi, o'zaro qo'shni xalqlar o'rtasidagi munosabatlarga oydinlik kiritishda etakchi o'ringa ega. Chunki ayrim populyatsiyalarning vujudga kelishi va rivojlanishini aniqlash, aynan shular asosida shakllanib, amalga oshiriladi. Bu esa antropologiyaning asosini tashkil qiladi.

Xalqlarning antropologiyasini o'rganish, etnik guruhning tili, madaniyati, biologik xususiyatlari, o'z nomi va o'z-o'zini anglashining asosiy belgilarini shakllantirish imkonini beradi. Shuning uchun etnografik, arxeologik, yozma, lingvistik va antropologik manbalar har doim soha olimlarining diqqat markazida bo'lgan.

Mintaqa xalqlari antropologiyasi va etnik tarixini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar E.M.Masson rahbarligidagi Janubiy Turkmaniston kompleks arxeologik ekspeditsiyasi (YuTAKE)[14], S.P.Tolstov rahbarligidagi Turkmaniston-Xorazm arxeologik - etnografik

kompleks ekspeditsiyasi (TXAEKE)[15], A.Yu.Yakubovskiy rahbarligidagi arxeologik ekspeditsiyasi[16], L.V.Oshanin rahbarligidagi Toshkent antropologiya maktabining (TSHA) kompleks ekspeditsiyalari natijasida samarali ilmiy natijalarga olib keladi[17]. Ushbu tadqiqotlar natijasida antropologik tadqiqotlarni o'tkazish metodlari va yondashuvlarida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. Bu ekspeditsiyalar davomida insoniyat rivojlanishining barcha tarixiy davrlariga oid arxeologik, antropologik va etnografik kompleks tadqiqotlar o'tkazilib, bu jarayonda ko'plab ilmiy muammo va masalalarning echimini topilishiga erishildi. Kompleks ekspeditsiyalarning uzoq yillik samarali mehnatlari natijasida tadqiqotchi-olimlarning ko'plab monografiya va ilmiy nashrlari chop etildiki, bu nashrlar bugungi kun yosh tadqiqotchilar uchun sohaning o'ziga xos jihatlarini tadqiq qilishda, yangi tadqiqotlarni boshlashlarida yaxshi namuna va qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Nisbatan qisqa vaqt ichida antropologiya fani muhim muvaffaqiyatlarga erishdi, yaqin o'tmishda hal qilib bo'lmaydigan ko'ringan ko'plab savollar o'z echimlarini topa boshladi. Davr o'tishi bilan, antropologiya insonning morfologik, funktsional, genetik va biokimyoviy xususiyatlarining o'zgaruvchanligini o'rganish uchun zarur bo'lgan boshqa biologik fanlar - fiziologiya, biokimyoy, genetikadan olingan yangi metodologik usullar bilan boyib bordi.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, jamiyatda antropologiyaning fan sifatida shakllanishi natijasida, antropologik tadqiqotlar doirasi asta-sekinlik bilan, insonning o'z konstitutsiyaviy tipi, xarakteri va temperamentining shakllanishiga mos ravishda o'sishi va rivojlanishi qonuniyatlarini aniqlash kabi masalalarni o'z ichiga ola boshladi. Ya'ni jins, yosh, ijtimoiy mavqe, hududiy-iqlim sharoitlari va boshqalarga bog'liq ko'plab mexanizmlarini yoritish borasidagi faoliyati yo'lga qo'yildi.

Bundan keyin antropologlarning vazifasi, inson populyatsiyalarini o'rganish, o'sha guruhlarining biologik va fiziologik xususiyatlarini, ekstremal sharoitlarni, biologik shart-sharoitlari o'xshash bo'lgan hududlardagi turli etnik, yosh, ijtimoiy guruhlarini o'rganish va solishtirishdan iborat bo'la boshladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Я.Я.Рогинский, М.Г.Левин. Антропология. Учебное пособие. М.: Высшая школа.1978. 528 с. С.24.
2. Кодекс этики американской антропологической ассоциации. Журнал социологии и социальной антропологии. Санкт-петербург. 2000. Том III. №1. С.174.
3. Anna Z. Thompson. Register to the Papers of American Anthropological Association. National Anthropical Archives. Smithsonian Institution avril. 1998. (histoire de l'AAA).

4. Гизуллина А.В. Антропология. Курс лекций. Учебное пособие для академического бакалавриата. Москва. Юрайт. 2018. 201 с. С. 16.
5. Самохина Н.Н. Социально-культурная американская антропология. Учебное пособие. – Нижневартовск: Изд-во НВПУ. 2016. 102 с. С. 88
6. Я.Я.Рогинский, М.Г.Левин. Антропология. Учебное пособие. М.: Высшая школа.1978. 528 с. С.26.
7. Гизуллина А.В. Антропология. Курс лекций. Учебное пособие для академического бакалавриата. Москва. Юрайт. 2018. 201 с. С. 21.
8. Я.Я.Рогинский, М.Г.Левин. Антропология. Учебное пособие. М.: Высшая школа.1978. 528 с. С.24.
9. Самохина Н.Н. Социально-культурная американская антропология. Учебное пособие. – Нижневартовск: Изд-во НВПУ. 2016. 102 с. С. 91-92.
10. Гизуллина А.В. Антропология. Курс лекций. Учебное пособие для академического бакалавриата. Москва. Юрайт. 2018. 201 с. С. 21.
11. Anna Z. Thompson. Register to the Papers of American Anthropological Association. National Anthropical Archives. Smithsonian Institution avril. 1998. (histoire de l'AAA).
12. Федченко А.П. Путешествие в Туркестан. Санкт-Петербург; Москва: [б.и.], 1875. – 184 с. С. 67-72. (Известия Императорского Общества любителей Естествознания, Антропологии и Этнографии. Том XI. Выпуск 7) .
13. Богданов А.П. Московская антропологическая выставка 1879 г. Т. 3, ч. 2. Описание предметов выставки. Вып. 3. Отдел краниологии / Сообщ. А. П. Богдановым. - М., 1879. - 28 с. - (Известия Имп. о-ва любителей естествознания, антропологии и этнографии. Т. 35, ч. 2, вып. 3).
14. У.М.Массон. Южно-Туркменистанская археологическая комплексная экспедиция (ЮТАКЭ) 1946 года. Т.1. Ашхабад: 1949. 424 с. С. 5-10.
15. Толстов С.П. Народы Средней Азии и Казахстана. Т.1-2. Москва: Издательство Академии наук СССР, 1962. — 768 с., 15 л. ил., карт. — (Народы мира. Этнографические очерки).
16. Якубовский А.Ю. Археологическая экспедиция в Зарафшанскую долину 1934 г. (Из дневника начальника экспедиции) // Труды Отдела Востока Государственного Эрмитажа. Т. II. Л., 1940. С.10-27.
17. Ошанин Л.В. Антропологический состав населения Средней Азии и этногенез её народов в свете данных антропологии.Т.: Изд-во АН УзССР, 1953. – С.61-74.